



SANTOLINA L. TURKUMI VAKILLARINING QARSHI VOHASI SHAROITIDA BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kattaboyeva G.S., Xakimova F.F.

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada Qarshi vohasiga introduksiya qilingan *Santolina L.* turkumiga mansub *S. chamaecyparissus* va *S. virens*ning o'sishi va rivojlanishiga doir dastlabki kuzatish natijalari keltirilgan. Har ikkala turning introduksiya sharoitida uzoq vegetatsiya qilishi, issiq va quruq yoz oylaridan zararlanmasligi, qish oyida ham yashilligini saqlab qolishi aniqlangan. Qalamchadan ko'paytirilgan o'simliklarning hayotining dastlabki yilida reproduktiv fazaga o'tmaganligi kuzatilgan.

Аннотация

В статье представлены результаты предварительных наблюдений за ростом и развитием *S. chamaecyparissus* и *S. virens* рода *Santolina L.*, интродуцированных в Каршинский оазис. Установлено, что оба вида в условиях интродукции имеют длительную вегетацию, не подвержены влиянию жарких и засушливых летних месяцев и сохраняют зелень даже зимой. Установлено, что растения, размноженные черенками, в первый год жизни не вступают в репродуктивную фазу.

Annotation

The article presents the results of preliminary observations of the growth and development of *S. chamaecyparissus* and *S. virens* of the genus *Santolina L.*, introduced into the Karshi oasis. It has been established that both species, under conditions of introduction, have a long growing season, are not affected by hot and dry summer months, and retain greenery even in winter. It has been established that plants propagated by cuttings do not enter the reproductive phase in the first year of life.

Kalit so'zlar: doim yashil, introduksiya, ko'kalamzorlashtirish, dorivor, parfyumeriya sanoati, manzarali, chalabuta, reproduktiv faza.

Ключевые слова: вечнозеленое растение, интродукция, озеленение, лекарственное средство, парфюмерная промышленность, декоративность, полукустарник, репродуктивная фаза.

Key words: evergreen plant, introduction, landscaping, medicine, perfume industry, decorativeness, subshrub, reproductive phase.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2021 yildagi "Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-



5209-son qarorida gulchilik va ko'chatchilikni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy gul navlarini parvarishlash va shunga o'xshash muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan tashkil etilgan "Gul yetishtiruvchilar uyushmasi" hamda tadbirkorlik subektlariga davlat tomonidan qator imtiyozlar berilgan va buning natijasi ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladigan gullar assortimentining yangi tur va navlar hisobiga tobora boyib borayotganligida aks etmoqda. Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirishda foydalanilayotgan assortiment orasida Asteraceae oilasining *Santolina* L. turkumi vakillari ham mavjud bo'lib, ushbu maqolada turkumga mansub 2 ta tur: *S. chamaecyparissus* (kiparissimon santolina) va *S. virens* (yashil santolina)ni Qarshi vohasi sharoitiga introduksiya qilish asosida 2023 yilda olingan dastlabki natijalar keltirilgan.

Turkum O'rtayerdengizi havzasida o'suvchi xushbuy hidli doim yashil chalabuta va o't hayotiy shaklidagi o'simlik turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu turlar manzarali va dorivor o'simliklar sifatida ko'pgina mamlakatlarning madaniy florasida ro'yhatida mavjud. Halq tabobatida spazmolitik, dezinfeksiyalovchi va gijjalarga qarshi vosita, hasharotlar chaqqanda davolovchi va og'riq qoldiruvchi sifatida foydalaniladi. O'simlikning barglari va gullaridan choy va ziravor, shuningdek, kuyaga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Parfyumeriya sanoatida keng qo'llaniladi (1).

S. chamaecyparissus – yovvoyi holda chalabuta hayotiy shakliga ega bo'lgan, bo'yi yarim metrgacha o'suvchi o'ziga xos xushbuy hid taratuvchi o'simlik. Novda va barglari kumushsimon tukchalar bilan qoplanganligi sababli o'simlik tupining rangi kulrang-yashil tusga ega. Yovvoyi holda O'rtayerdengizining G'arbiy va Markaziy qismidagi tog'larning yonbag'irlarida o'sadi. Arealining sharqiy qismi Italiya va Dalmatsiya hududlarigacha boradi.

O'simlik tarkibidan olinadigan efir moyi yuqori dorivorlik xususiyatiga ega (2, 3). Qrim sharoitida o'sgan o'simliklarning yer ustki organlarida 0,35% gacha efir moyi hosil bo'lishi va uning α + β -santolinenon (41,6%), terpineol-4-ol (6,67%), borneol (4,78%), α -terpineol (4,39%), α -fellandren (3,98%) kabi komponentlardan iboratligi aniqlangan (4).

Qarshi vohasi sharoitida bahorda qalamchasidan ekilgan tuplar yil mobaynida $52 \pm 3,4$ sm o'sdi. Novdalari tik o'sib, kulrang tukchalar bilan qoplandi. Kalta va asosi kengaygan bandga ega bo'lgan barglarining uzunligi 3,5-4 sm ni tashkil qildi. Qarshi vohasining issiq va quruq yozi sharoitida o'sish biroz sekinlashdi, ammo to'htab qolmadi. Iyun-iyul oylari mobaynida $7,5 \pm 2,4$ sm o'sganligi kuzatildi. O'sish noyabr oyining uchinchi o'n kunligigacha davom etdi. Qalamchadan ko'paytirilgan bir yoshli tuplarda bir yilda $6 \pm 1,4$ ta novda hosil bo'lgan bo'lsa, 5 yoshli o'simlikni bo'lingan har bitta tupida $27 \pm 2,8$ tadan novda hosil bo'ldi. Dastlabki yilda tuplarning birortasida ham reproduktiv fazaga o'tish kuzatilmadi. Qish oylarini ochiq joyda yashilligicha o'tkazdi.

S. virens (yashil santolina) – doimiyashil, chalabuta hayotiy shakliga ega o'simlik. Novdalari va barglari och yashil rangda, tuksiz. Barg yaprog'i tishchali. Vatani Ispaniya.

Qarshi vohasi sharoitida bahorda tupini bo'lish asosida ekilgan o'simliklarning bo'yi vegetatsiya oxirida $56 \pm 3,7$ sm ni tashkil qildi. Shox-shabbasi sharsimon shaklni hosil qilib o'sdi. Barglarining uzunligi 6-7 sm gacha, yam-yashil rangda. Qarshi vohasining issiq va



quruq yozi sharoitida o'simlikning o'sishi ancha sekinlashdi. Iyun-iyul oylari mobaynida uning $3,5 \pm 0,8$ sm o'sganligi kuzatildi. Qish oylarida ham o'sishda davom etdi. Qishgacha bitta tupda $15 \pm 2,4$ tadan novda hosil bo'ldi. Ushbu tur ham birinchi yili reproduktiv fazaga o'tmadi. Qish oylarini ochiq joyda yashilligicha o'tkazdi

Shunday qilib, Qarshi vohasi sharoitida *S. chamaecyparissus* va *S. virens*larning vegetatsiyasi uzoq davom etishi, issiq va quruq yoz oylaridan zararlanmasligi, qish oyida ham yashilligini saqlab qolishi aniqlandi. Bu O'rtayerdengizi florasiga mansub turlarning Qarshi vohasi sharoitida yoz oylarining issiq va quruq iqlimidan kam zararlanishi, qishda yashilligini yo'qotmasligi to'g'risidagi ma'lumotni tasdiqlaydi (5). Qalamchadan ko'paytirilgan o'simliklarning hayotining dastlabki yilida reproduktiv fazaga o'tmaganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brunke E.J., Hammerschmidt F.J., Shmaus G. The essential oil of *Santolina chamaecyparissus* L. // *Dragoco Report*. – 1992. – № 39. – P. 3-31.
2. Suresh B. et al. Anticandidal activity of *Santolina chamaecyparissus* volatile oil // *Journal of ethnopharmacology*. – 1997. – T. 55. – №. 2. – C. 151-159.
3. Azevedo T. et al. *Santolina chamaecyparissus* L.: A Brief Overview of Its Medicinal Properties // *Medical Sciences Forum*. – MDPI, 2023. – T. 21. – №. 1. – C.8.
4. Ярош А.М. и др. Компонентный состав эфирного масла *Santolina chamaecyparissus* L. и *Santolina rosmarinifolia* L. на Южном берегу Крыма // *Бюллетень ГНБС*. 2017. №124. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/komponentnyy-sostav-efirnogo-masla-santolina-chamaecyparissus-l-i-santolina-rosmarinifolia-l-na-yuzhnom-beregu-kruma> (дата обращения: 15.01.2024).
5. Саматова Ш.А. Ареалогическая структура цветочно-декоративных растений культурной флоры Каршинского оазиса // *Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии*, 2022. Т. 21, – № 2. – С. 180-182.